

**FERMER XO‘JALIGIDA TUT NIHOLCHALARINI  
YETISHTIRISH UCHUN QILINADIGAN TASHKILIY ISHLAR**

***Tursunova Shaxriniso Maxmatqobilovna***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assestanti.*

***Annotatsiya:*** *Ipakchilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, to‘qimachilik sanoati va xalq xo‘jaligini ipak hom ashyosi bilan ta‘minlaydigan soha hisoblanadi.*

*Mustaqil respublikamiz xalqining turmush tarzi yaxshilangan sari uning tabiiy ipakka bo‘lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda. Bundan tashqari shaxsiy yordamchi dexqon va fermer xo‘jaliklariga katta daromad keltiradi hamda ho‘jalikning ana shu davr mobaynida zarur bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi.*

***Kalit so‘zi:*** *tut, ipak qurti, pilla, g‘o‘za, kartoshka, makkajo‘xori, oqjo‘xori, g‘umbak.*

***Аннотация:*** *Производство шелка — одна из важных отраслей сельского хозяйства, это отрасль, обеспечивающая шелковым сырьем текстильную промышленность и народное хозяйство.*

*По мере улучшения образа жизни жителей нашей независимой республики возрастает и их потребность в натуральном шелке. Кроме того, личный помощник приносит фермерам и фермам большой доход и используется для удовлетворения потребностей домашнего хозяйства в этот период.*

***Ключевые слова:*** *шелковица, тутовый шелкопряд, кокон, хлопок, картофель, кукуруза, кукуруза, гриб.*

***Annotation:*** *Silk production is one of the important branches of agriculture, it is a branch that provides the textile industry and the national economy with silk raw materials.*

*As the lifestyle of the residents of our independent republic improves, their need for natural silk also increases. In addition, a personal assistant brings farmers and farms a large income and is used to meet the needs of the household during this period.*

**Keywords:** mulberry, silkworm, cocoon, cotton, potato, corn, corn, mushroom.

Tut niholini o‘stirishdan asosiy maqsad butasimon tutzorlar va qatorlab ekilgan tutlar uchun ikki yoshli duragay hamda payvandlash uchun payvandtag ko‘chatlar yetishtirishdan iborat.

Tut urug‘ining unishi va niholchanning ko‘karishi tuproq, iqlim va parvarish qilish darajasi hamda boshqa omillarga bog‘liq. Ana shular o‘simlik ehtiyojiga mos kelgan taqdiridagina u yaxshi o‘sadi, maydon birligida yetishtiriladigan nihol miqdori ko‘payadi va uning sifati yaxshi bo‘ladi.

O‘zbekistonning janubiy va o‘rta iqlimli mintaqalarida niholchalar bir yil davomida o‘stiriladi. Bir yashar niholcha yetishtirish uchun avvalgi yil tayyorlangan urug‘lar ko‘klamda, yangi tayyorlangan urug‘lar yoz yoki kuzda sepiladi. Bir yarim yashar niholcha yetishtirish uchun shu yil tayyorlangan urug‘lar yozda sepilib, niholchalar ikkinchi yilga shu maydonda qoldiriladi.

Urug‘ yuqoridagi muddatlarda ekib o‘stirilgandagina namuna talabiga mos keladigan niholchalar yetishtirish mumkin.

Tutni urug‘dan sepib o‘stirishning o‘ziga xos tomoni shundaki, uning unishi va ko‘karishi o‘suv davrining birinchi yarmida juda sekin ketib, namlikni ko‘p talab qiladi. Shu tufayli niholzorda ko‘plab begona o‘tlar o‘sadi. Buni e‘tiborga olgan holda niholzor uchun oricha kam o‘tli uchastka tanlash lozim.

Bedadan bo‘shagan yer ham juda unumdor bo‘ladi. Lekin bunday yerga tut urug‘ini birinchi yili sepish yaramaydi. Chunki dalada hali ildizi qurimagan beda hamda begona o‘tlar yangidan ko‘karib chiqadi. Natijada niholzorni o‘tash uchun uda ko‘p mehnat sarflanadi. Bunda ancha niholcha nobud bo‘lishi mumkin. Bedadan bo‘shagan yerlarga birinchi yili qator oralari chopiladigan (g‘o‘za,

kartoshka, makkajo‘xori, oqjo‘xori, lavlagi va boshqa) o‘simliklar ekilib, o‘tdan tozalanishi va ikkinchi yili tut urug‘i sepilishi kerak.

Niholzor uchun og‘ir tuproqli, kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan, sizot suvlari juda yaqin joylashgan hamda yerda ko‘kqurt tunlama (sovka), buzoqboshi, tillaqo‘ng‘iz va boshqa zararli hasharotlar istiqomat qilgan yerlar yaramaydi.

Tut urug‘ini sepish uchun tanlangan yerdagi o‘tmish ekinlar yig‘ishtirib olingandan keyin, qolgan poya va ildizlar T-40, T-548, T-70 S belgili traktorlarga tirkalgan PAS-5-25 A bog‘ pluglushchilnigi /sayoz haydaydigan/, g‘o‘zapoyani qo‘poruvchi GJ yoki GUM, KC-4M belgili poya qazig‘ich mashinalar yordamida tozalanadi. Kuzgi shudgor 10 noyabrdan kechiktirilmasdan chimqirqarli plug bilan 35-40 sm chuqurlikda bir tekisda haydaladi. Shudgorlashdan oldin gektariga 150-200 kg superfosfat hamda 5-10 t gacha go‘ng solish kerak. Tuproq juda qurigan bo‘lsa, shudgorlashdan oldin dalaga suv beriladi. Tuprog‘i sho‘rlanmagan yerlarning gektariga 700-1000 m<sup>3</sup> suv quyiladi, sho‘rxok yerlarga beriladigan suv miqdori esa tuproqning sho‘rlanish darajasiga qarab belgilanadi. Yer haydashdan oldin yaxshilab tekislanadi. Kuzda haydalgandan keyin yaxob suvi berilgan yoki sho‘ri yuvilgan yerlar erta ko‘klamda, tuproq selgigach, chizel bilan yumshatilishi va boronalanishi lozim. Yer ba‘zi sabablar bilan kuzda shudgorlanmagan bo‘lsa, ko‘klamda 28-30 sm chuqurlikda haydalib, ketma-ket boronalanadi.

Maysalarni tez va bir tekisda undirish, maydon birligida ko‘p va sifatli niholchalar yetishtirish urug‘ning ekish miqdorini to‘g‘ri aniqlash va uni sepishga barvaqt tayyorlab qo‘yishga bog‘liqdir.

Urug‘ni ekish miqdori bir qancha omillarga, jumladan: reja bo‘yicha maydon birligida yetishtiriladigan nihol miqdori, ekish texnikasi, parvarishlash agrotexnikasi darajasi, joyning tabiiy va iqlim sharoiti hamda urug‘ning laboratoriya sharoitida ko‘karishini dala sharoitida ko‘karish darajasiga bo‘lgan nisbatiga bog‘liqdir.

Ekish miqdorini amaliy jihatdan aniqlashda yuqoridagi omillar ichida urug‘ning tozalik va ko‘karib chiqish foizi, ya‘ni uning xo‘jalik qimmati juda katta ahamiyatga ega.

Urug'ning unib chiqishini tezlatish uchun uni gazlamadan tikilgan qopchalarga solinib, oqar suvda yoki har kuni 1-2 marta suvi almashtirib turiladigan bochka yoki tosta 3 kecha-kunduz davomida ivitiladi. Urug' mashinalarda ekilsa, ular sepiluvchan bo'lishi darajasigacha soyada quritiladi, qo'lda sepilganda quritishning hojati yo'q.

O'zbekistonda tut urug'i ko'klamda, yozda va kuzda esa shu yili tayyorlangan urug' sepiladi.

Urug'ni ko'klamda sepish u yoki bu mintaqaning tuproq-iqlim va ob-havo sharoitiga qarab belgilanadi. O'zbekistonning janubiy rayonlarida mart oyining oxiridan aprelning yarmigacha, o'rtacha iqlimli rayonlarida aprelning ikkinchi yarmidan oxirigacha, shimoliy rayonlarida aprel oxiridan mayning yarmigacha ekiladi.

R.Yu. Zverovning Toshkent viloyati sharoitida olib borgan tajribasiga ko'ra, ko'klamda sepilgan urug' tushgan (0-5 sm) chuqurlikdagi tuproqning issiqligi 10-11<sup>o</sup> bo'lganda, 15-17 kunda, 15-17<sup>o</sup> da 10-14 kunda, 18-22<sup>o</sup> da 5-8 kunda ko'kargan. Tuproqdagi bunday harorat tajriba olib borilgan (1965-1967) yillarda tegishli 15-28 aprel, 29-aprel – 4-may va 6-14 mayga to'g'ri kelgan. Ushbu muallifning ta'kidlashicha, tuproq harorati 18-22<sup>o</sup>C va namligi 19-22% bo'lganda, ekilgan urug' tez (6-10) kunda qiyg'os ko'karadi. O'suv jadal davom etib, ko'pchilik niholchalar standart talabiga javob beradi.

M. Kulievning ma'lumotiga ko'ra, Turkmaniston sharoitida 16 aprelda sepilgan tut urug'idan chiqqan nihollar, 26 aprel va 16 mayda sepilgandagiga nisbatan 22,7-42,5 % ga ko'p va sifatli bo'lgan.

Urug' sepilgan vaqtda tuproq qatamida harorat +15<sup>o</sup>C dan yuqori bo'lishi kerak. Yangi tayyorlangan urug' yozda, iloji boricha barvaqt mayning oxiri yoki iyunning birinchi yarmidan kechiktirmay ekish zarur. Janubiy rayonlarda yozda ekilgan urug'lardan kuzgacha deyarli standart nihollar yetishtirish mumkin. Lekin o'rta iqlimli va shimoliy rayonlarda bu vaqtda sepilgan urug'lardan ungan nihollar, standart talabiga javob berishi uchun ikkinchi yilga qoldirib, o'stiriladi.

Tut urug'ini kuzda sepish mumkinligi 1930-1931 yillari Ukrainada M.Filkov va 1958-yilda O'zbekistonda A.S.Yemelyanovlar sinab ko'rib, ijobiy natijaga erishdilar. Urug'ni kuzda sepishning afzalligi 70-yillardan boshlab amaliy jihatdan tasdiqlangan. Masalan, R.Abdullaev O'rta Osiyo ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba xo'jaligida tut urug'ini 1969 yili sentabr, noyabrda va 1970 yili fevralda ekib, pushta ustiga 1-2 sm qalinlikda chirigan go'ng to'shagan. Noyabrda urug' sepilgan maydonlarning maysalari kelgusi yili juda yaxshi o'sib, gektariga 1 mln 93 ming niholcha yetishtirilgan. Sentabr va fevralda sepilgan urug'lardan chiqqan nihollar miqdori tegishli 522-604 mingni tashkil etgan.

### **XULOSA**

Shunga o'xshash Xorazm viloyatida S.Mahmudov rahbarlik qilgan Urgench tut ko'chatzoriga tut urug'ini 1973 yili 27 noyabr, 1974-yili 6 va 20-mayda ekilganda gektaridan 1-2-3 muddatlarda sepilganda tegishli 1 mln 20 ming, 930 ming va 682 ming, ya'ni kuzda sepilgan urug'dan, yozda (6-mayda)giga nisbatan 90 ming ko'p nihol yetishtirilgan. Ya'ni birinchi va ikkinchi muddatda ekilgan urug'lardan tegishli 65-45% standart nihollar olingan. Yozda (20 may) sepilgan urug'lardan ungan hamma nihollar kuzgacha yetisha olmagan.

Yu.Miralimov, R.Sodiqov va X.Beknazarovlarning Toshent, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida olib borgan tajribalariga ko'ra, oktyabr va noyabrda sepilgan tut urug'i nihollari ko'klamdagiga nisbatan jadal o'sib, ko'p miqdorda standart va hatto oliy navli nihollar yetishtirilgan. Binobarin, O'zbekiston sharoitida tut urug'ini ko'klam, yoz fasllaridan tashqari kuzda ham sepish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. I.A.Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir" Toshkent-2015 y.
2. I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" Toshkent-"O'zbekiston"-2010 y. 12 noyabr.

3. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. Toshkent. O‘zbekiston. 2009. B. 54.
4. Abdullayev U. – “Tutchilik”, “Mehnat”, T. 1991.
5. Avakyan D.O., Tumanyan A.G., Xachaturyan V.A. - Novie tetraploidnye formy shelkovisy. «Materiali II Vsesoyuznogo seminara soveshaniya po genetike i seleksii shelkopryada i shelkovisi», Toshkent, 1981, s. 61-62.